

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI**

KASBIY TA'LIM AGENTLIGI

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI



«TASDIQLAYMAN»

Kasbiy ta'limni rivojlantirish
instituti direktori

Kadirov

» _____ 2026 yil

“TA'LIMDA BOSHQARUV”

kafedra

RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI

fani bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTUR

Ta'lim turi:

Kadrlarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

**Tinglovchilar
toifasi**

Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar

TOSHKENT

Mazkur ishchi o‘quv dastur Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

S.A.Qarshiboyev

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
Tayanch doktoranti

Taqrizchilar:

N.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
P.f.f.d. (PhD)

A.Sharafiddinov

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax
filiali “Umumiy psixologiya”kafedrası
dotsenti

I. TUSHUNTIRISH XATI

Bugungi kunda rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini, yosh bosqichlari xususiyatlarini va individual farqlarni chuqur bilish zamonaviy pedagog va rahbar uchun zaruriy kompetensiya hisoblanadi. Ushbu fanlar ta'limchi va rahbarga turli yoshdagi o'quvchilar bilan samarali ishlash, rivojlanish inqirozlarini vaqtida aniqlash hamda ularga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23 iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori hamda Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur fan tinglovchilarga rivojlanish psixologiyaning nazariy asoslarini o'zlashtirish, turli yosh bosqichlaridagi psixologik xususiyatlarni tahlil qilish hamda individual farqlarni hisobga olgan holda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkonini beradi. Unda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, treninglar va keys-stadilar orqali real vaziyatlarda ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Ushbu o'quv fanida tinglovchining o'quv yuklamasi 24 soat bo'lib, shundan:

Jami auditoriya o'quv yuklamasi	- 24 soat
Jumladan: Nazariy mashg'ulotlar	- 12 soat
Amaliy mashg'ulotlar	- 12 soat

II. FANNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Fan nomi: Rivojlanish psixologiyasi.

2.2. Fan maqsadi: Tinglovchilarda rivojlanish psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari va metodlari haqida tizimli bilimlarni shakllantirish; inson psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini, yosh bosqichlari xususiyatlarini hamda individual farqlarni tahlil qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish; ta'lim jarayonida yoshga oid xususiyatlarni hisobga olgan holda samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish va rivojlanish inqirozlarini psixologik-pedagogik jihatdan boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish.

2.3. Tinglovchilar ushbu fanni o'rganish natijasida milliy malaka tizimiga taalluqli quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

Bilim	Ko'nikma	Kompetensiya
Rivojlanish psixologiyasi predmeti, vazifalari, yosh bosqichlari va davrlash tizimi.	Yosh bosqichlari xususiyatlarini tahlil qila oladi va ularni ta'lim amaliyotida hisobga oladi.	Yosh bosqichlariga mos pedagogik yondashuvlarni kasbiy faoliyatda qo'llaydi.
Psixik taraqqiyotning asosiy nazariy yondashuvlari (Vigotskiy, Piaje, Erikson, Bandura).	Rivojlanish nazariyalarini taqqoslab tahlil qiladi va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etadi.	Nazariy bilimlarni o'quvchilar bilan ishlashda amaliy maqsadlarda qo'llaydi.
Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrlarining psixologik xususiyatlari, inqirozlari.	Yosh inqirozlarini diagnostika qiladi va psixologik qo'llab-quvvatlash usullarini qo'llaydi.	Rivojlanish inqirozlarini pedagogik-psixologik jihatdan boshqarish kompetensiyasini egallaydi.
Yetuklik, qarilik davrlari psixologiyasi va gerontopsixologiya asoslari.	Yetuklik davrining kognitiv va shaxsiy xususiyatlarini aniqlaydi.	Turli yosh guruhidagi tinglovchilar bilan samarali ta'lim jarayonini tashkil etadi.
Differensial psixologiya: individual farqlar, temperament, xarakter, intellekt.	Individual farqlarni aniqlash va ularni hisobga olgan holda ish yuritadi.	Individual yondashuvni kasbiy ta'lim jarayoniga tatbiq etadi.
Maxsus psixologiya: rivojlanishda buzilishlar, kompensatsiya va inklyuziv ta'lim.	Rivojlanishida buzilishlar mavjud o'quvchilarni aniqlaydi va ularga yordam ko'rsatadi.	Inklyuziv ta'lim sharoitida psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash kompetensiyasini qo'llaydi.

Fan bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				Mustaqil ta'lim
		Hammasi	Auditoriyalardagi o'quv yuklamasi		Mustaqil ta'lim	
			Jami	Nazariy		
1	Rivojlanish psixologiyasi fani predmeti, metodlari va nazariy yondashuvlar	4	4	2	2	
2	Bolalik davrlari psixologiyasi (perinatal, go'daklik, ilk bolalik, maktabgacha yosh)	4	4	2	2	
3	Maktab yoshi va o'smirlik davri psixologiyasi	4	4	2	2	
4	O'spirinlik va yetuklik davri psixologiyasi	4	4	2	2	
5	Gerontopsixologiya va differensial psixologiya	4	4	2	2	
6	Maxsus psixologiya va rivojlanishda buzilishlar	4	4	2	2	
Jami:		24	24	12	12	

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

1-mavzu. Rivojlanish psixologiyasi fani predmeti, metodlari va nazariy yondashuvlar. Rivojlanish psixologiyasi predmeti va vazifalari. "O'sish", "rivojlanish", "yetilish", "yosh" tushunchalari. Filogenez, ontogenez, hayot yo'li. Psixik rivojlanish qonuniyatlari: butunligi, tuzilmaviyligi, bosqichliligi, geteroxronligi. Akseleratsiya va retardatsiya. Sensitiv va inqirozli davrlar. Tadqiqot metodlari: eksperiment, biografik, observatsion, psixodiagnostik, longityud. Psixik taraqqiyotga asosiy nazariy yondashuvlar: biogenetik (St.Xoll), yetilish (A.Gezell), bixeviorizm (B.Skinner), ijtimoiy o'rgatish (A.Bandura), konvergensiya (V.Shtern), psixoanaliz (Z.Freyd, A.Adler), epigenetik konsepsiya (E.Erikson), intellektual rivojlanish (J.Piaje), madaniy-tarixiy konsepsiya (L.S.Vigotskiy), ekologik tizimlar modeli (U.Bronfenbrenner).

2-mavzu. Bolalik davrlari psixologiyasi (perinatal, go'daklik, ilk bolalik, maktabgacha yosh). Perinatal davr: homilaning sensor va reflektor faolligi, teratogen omillar, tug'ilish aktining psixologik xarakteristikasi. Chaqaloqlik

davrining fiziologik va psixologik xususiyatlari. Jonlanish kompleksi. Go'daklik davrida yetakchi faoliyat, emotsional muomala, nutqning vujudga kelishi (passiv, aktiv, avtonom nutq). 1 yoshdagi inqiroz. Ilk bolalik davrida jismoniy va emotsional rivojlanish, nutq rivojlanishi. Uch yosh inqirozi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv jarayonlar rivojlanishi (Piaje tajribalari). O'yin yetakchi faoliyat sifatida: rolli-syujetli, didaktik o'yinlar.

3-mavzu. Maktab yoshi va o'smirlilik davri psixologiyasi. Bolaning maktabga tayyorgarligi: fiziologik, kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy komponentlar. Maktabga yetilish. 7 yosh inqirozi. O'quv faoliyati yetakchi faoliyat sifatida. Kichik maktab yoshida emotsional rivojlanish, maktabga moslashish. Disleksiya va disgrafiya: psixologik korreksiya yo'llari. O'smirlilik davrida fiziologik va neyroqumoral o'zgarishlar. Akseleratsiya va retardatsiya. Pubertat inqirozi. Xarakter aksentuatsiyasi, deviant xulq-atvor. O'smirlar submadaniyati va ijtimoiylashuv xususiyatlari.

4-mavzu. O'spirinlik va yetuklik davri psixologiyasi. O'spirinlik davrida rivojlanishning o'ziga xosligi. Dunyoqarashning kamol topishi. E.Erikson nazariyasi va aynanlik komponentlari. D.Marsia va psixosotsial moratoriy. Kasb tanlash psixologiyasi va hayotiy istiqbol. Yetuklik davrining davrlashtirilishi: erta, o'rta, kechki yetuklik. "O'rta yoshlar" inqirozi. Joriy va kristallashgan intellekt. Yetuklik davrida kognitiv o'zgarishlar, qadriyatlar tizimi va motivatsiya inqirozi.

5-mavzu. Gerontopsixologiya va differensial psixologiya. Gerontopsixologiya predmeti va dolzarb muammolari. Keksalik va qarish jarayonlari. Qarilik davrida kognitiv soha o'ziga xosligi. Emotsional yetishmovchilik sindromi. Eydjizm. Uzoq umr ko'rishning biologik, ijtimoiy va psixologik omillari. Differensial psixologiya predmeti va vazifalari. Individual farqlar manbalari. Integral individuallik tuzilmasi. Psixik jarayonlardagi farqlar, yarim sharlar assimetriyasi, temperament. Xarakter, intellekt va qobiliyatlar. Jins va ijtimoiy-sinfy tafovutlar.

6-mavzu. Maxsus psixologiya va rivojlanishda buzilishlar. Maxsus psixologiya predmeti va vazifalari. L.S.Vigotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqson haqidagi g'oyalari. Kompensatsiya nazariyasi (A.Adler, L.S.Vigotskiy). Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi (surdopsixologiya). Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (tiflopsixologiya). Psixik rivojlanish sustligi va oligofreniya. Nutq buzilishlari. Bolalarda emotsional-irodaviy buzilishlar (autizm). Inklyuziv ta'limning psixologik asoslari. Rivojlanishda buzilishlar mavjud bolalar bilan psixologik-pedagogik ish.

3.2. Amaliy mashg'ulot mazmuni

1-mavzu. Rivojlanish psixologiyasi fani predmeti, metodlari va nazariy yondashuvlar. Rivojlanish psixologiyasining predmeti, vazifalari va boshqa fanlar bilan bog'liqligini tahlil qilish. Tadqiqot metodlarini (kuzatish, suhbat, test, longityud) amaliy qo'llash bo'yicha topshiriqlar bajarish. Asosiy rivojlanish nazariyalarini (Vigotskiy, Piaje, Erikson, Bandura) taqqoslab muhokama qilish. Ta'lim amaliyotida qaysi nazariyadan foydalanish maqsadga muvofiqligini asoslash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

2-mavzu. Bolalik davrlari psixologiyasi. Chaqaloqlik va go'daklik davri psixologiyasini amaliy misollar orqali o'rganish. Uch yosh inqirozi simptomlari bilan ishlash: amaliy mashqlar. O'yin turlarini tahlil qilish va didaktik o'yinlar loyihalash. 1 yoshdagi va uch yoshdagi inqirozlarda ota-onalarga psixologik maslahat berish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

3-mavzu. Maktab yoshi va o'smirlik davri psixologiyasi. Bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash metodikalarini amaliy qo'llash. Disleksiya va disgrafiyani erta aniqlash belgilarini o'rganish. O'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini tahlil qilish. Deviant xulq-atvor profilaktikasi bo'yicha amaliy ishlar. O'smirlar bilan samarali muloqot usullarini o'rganish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

4-mavzu. O'spirinlik va yetuklik davri psixologiyasi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha amaliy mashqlar. Aynanlik rivojlanish bosqichlarini (D.Marsia) diagnostika qilish usullarini o'rganish. "O'rta yoshlar" inqirozini aniqlash va psixologik qo'llab-quvvatlash. Yetuklik davrida kognitiv imkoniyatlar o'zgarishini baholash metodikalari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

5-mavzu. Gerontopsixologiya va differensial psixologiya. Keksalar bilan psixologik-konsultativ tadbirlar olib borish xususiyatlarini o'rganish. Temperament va intellektni diagnostika qilish metodikalarini amaliy qo'llash. Individual farqlarni aniqlash va ta'lim jarayonida hisobga olish. Jins va ijtimoiy omillarning rivojlanishga ta'sirini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

6-mavzu. Maxsus psixologiya va rivojlanishda buzilishlar. Rivojlanishda buzilishlar mavjud bolalarni aniqlash metodlarini amaliy o'rganish. Inklyuziv ta'lim sharoitida psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash usullarini tahlil qilish. Kompensatsiya mexanizmlarini rivojlantirish yo'llarini muhokama qilish. Autizm spektri buzilishlari bilan ishlash spetsifikasini keys-tahlil orqali o'rganish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

IV. NAZORAT SAVOLLARI

1. Rivojlanish psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari nimadan iborat?
2. "O'sish", "rivojlanish" va "yetilish" tushunchalari o'rtasidagi farq nima?

3. Psixik rivojlanish qonuniyatlari qaysilar? Geteroxronlik va nomutanosiblik deganda nima tushuniladi?
4. Rivojlanish psixologiyasida qanday tadqiqot metodlari qo'llaniladi? Longityud metodning afzalligi nimada?
5. L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasini tushuntiring. Rivojlanishning yaqin zonasi nima?
6. Perinatal davr psixologiyasining asosiy muammolari nimalardan iborat?
7. Jonlanish kompleksi nima? Qachon paydo bo'ladi?
8. 1 yoshdagi inqirozning sabablari va belgilari qanday?
9. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish bosqichlari qanday?
10. Uch yosh inqirozining asosiy simptomlari nimalar?
11. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin yetakchi faoliyat sifatida qanday rol o'ynaydi?
12. Bolaning maktabga tayyorgarligining qanday komponentlari mavjud?
13. 7 yosh inqirozini tavsiflang: sabablari va simptomlari.
14. Disleksiya va disgrafiya nima? Ularni psixologik korreksiya qilish yo'llari qanday?
15. Pubertat inqirozining psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?
16. O'spirinlik davrida aynanlik shakllanishining ahamiyati nimada?
17. "O'rta yoshlar" inqirozi qanday belgilar bilan namoyon bo'ladi?
18. Gerontopsixologiya fani predmeti va dolzarb muammolari nima?
19. Eydjizm nima va u qanday ijtimoiy-psixologik muammolarni keltirib chiqaradi?
20. Differensial psixologiya nima va u qanday yo'nalishlarni o'rganadi?
21. L.S.Vigotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqson haqidagi g'oyalari qanday?
22. Inklyuziv ta'limning psixologik asoslari nimalardan iborat?

V. O'QITISH VOSITALARI

1. Doska;
2. Flipchart qog'ozi;
3. Qog'oz A4 formatli yetarlicha;
4. Markerlar;
5. Tarqatma materiallar;
6. Multimediya to'plami (kompyuter, videoproektor, elektron doska, monitor);
7. Psixologik diagnostika metodikalari to'plami.

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 23-iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori.

Asosiy adabiyotlar

1. Rahimova I.I., Ziyavitdinova U.Z., Kamalova Z.X. Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya. Darslik. – T.: "Ma'rifat", 2024. – 240 bet.
2. Mo'minova L.R. Maxsus psixologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2020. – 272 b.
3. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi. –T., 2024.
4. Карабанова О.А. Психология развития и возрастная психология. –М., 2014.
5. Shaffer D.R., Kipp K. Developmental Psychology: Childhood and Adolescence. – Nelson Education Ltd., 2013.
6. Do'stmuxamedova Sh.A., Tillashayxova X.A. va b. Umumiy psixologiya (2-kitob). – T., 2021.
7. Лубовский В.И. в а б. Специальная психология: учебник для вузов. – 7-э изд. – М.: Юрайт, 2023. – 598 с.

Internet saytlar

1. <http://www.gumer.ru>
2. <http://www.voppsy.ru>

3. <http://koob.ru>
4. <https://www.psychology.uz>